

## TASHKILOTDA MENEJERLIKNING ROLI

**Abduraxmanov Shaxriyor Zafar o'g'li**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Menejment : Sog'liqni saqlash menejmenti  
fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Annotasiya:** *Tashkilotlardagi boshqaruv faoliyati bilan shug'ullanadigan Menejerlik kasbining bugungi kundagi o'rni va ahamiyatini batafsil yoritib berishga harakat qildik. Menejment usullari kishilarni, jamiyatni obyektiv ijtimoiy -iqtisodiy rivojlanish qonunlari talablarini bajarishga undaydi. Menejment fanining mazmuni boshqaruv tizimi va boshqaruv obyekti orasidagi o'zaro munosabat bo'lib, uning asosiy vazifasi boshqaruvning zamonaviy usullarini, rahbarlik san'ati sirlarini o'rganishdan iborat. Maqsadimiz boshqaruv uslublari, boshqaruv mexanizmlarni amaliyotda to'g'ri qo'llab, yuqori nafga erishishga o'z hissamizni qo'shishdan iborat.*

**Kalit so'zlar:** *Menejment, boshqaruv uslublari, avtokratik, byurokratik, demokratik, . Integratsion yondashish, Matematik yondashuv, Modellashtirish*

**Аннотация :** *Мы попытались подробно объяснить роль и значение профессии менеджера, которая сегодня занимается управленческой деятельностью в организациях. Методы управления побуждают человека и общество к выполнению требований закономерностей объективного социально-экономического развития. Содержание науки управления составляет взаимодействие системы управления и объекта управления, а ее основной задачей является изучение современных методов управления, секретов искусства руководства. Наша цель – способствовать достижению высокой прибыли, правильно применяя на практике методы и механизмы управления.*

**Ключевые слова:** *Менеджмент, стили управления, автократический, бюрократический, демократический. Интегративный подход, Математический подход, Моделирование*

**Annotation :** *We tried to explain in detail the role and importance of the Managerial profession, which deals with management activities in organizations today. Management methods encourage people and society to fulfill the requirements of the laws of objective socio-economic development. The content of the science of management is the interaction between the management system and the management object, and its main task is to study modern methods of management, the secrets of the art of leadership. Our goal is to contribute to the achievement of high profit by correctly applying management methods and management mechanisms in practice.*

**Key words:** *Management, management styles, autocratic, bureaucratic, democratic. Integrative approach, Mathematical approach, Modeling*

## KIRISH

Ma'lumki, har bir tashkilot faoliyati ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratiladi. Bu maqsadga erishish uchun esa tashkilotni boshqarish lozim bo'ladi. Boshqaruv jarayoni menejment deb ham yuritiladi (inglizcha "management" so'zi "boshqarish" degan ma'noni anglatadi). Boshqaruv haqidagi fan ham menejment deb ataladi va u boshqaruv usullari, shakllari va vositalarini o'rganadi.

Menejment — biror ko'zlangan maqsadga erishish usullari, shakllari, vositalari va boshqarish tamoyillarini o'rganadigan fan.

Menejer — maxsus boshqaruv ilmini egallagan ish yurituvchi yoki boshqaruvchi.

Firmada tovar ishlab chiqarish ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning har bir jabhasi boshqarishni talab qiladi. Masalan, ishchi-xizmatchilarni boshqarish, ishlab chiqarish vositalarini boshqarish, moddiy resurslarni boshqarish, ma'lumotlarni boshqarish, moliyaviy mablag'larni boshqarish va boshqalar.

## MENEJER VA UNING VAZIFALARI

Boshqaruv bevosita inson tomonidan amalga oshiriladi. Tashkilotda ishlaydigan, maxsus boshqaruv ilmini egallagan, ish yurituvchi va boshqaruvchi menejer deb ataladi. Har qanday rahbar xodim yoki menejer ish vaqtining 70 — 80 foizini odamlar bilan muloqot qilishga sarflaydi. Shu bois, menejmentni tom ma'noda qo'l ostida ishlayotgan xodimlar faoliyatini o'zaro muloqot orqali boshqarish deb ham aytish mumkin.

Menejer oldida turgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni ketma-ket bajarishi kerak bo'ladi: 1. Rejalashtirish; 2. Tashkil qilish; 3. Rahbarlik qilish; 4. Nazorat qilish.

Rejalashtirish bosqichida menejerlar korxonaga yoki tashkilot maqsadidan kelib chiqib, istiqbolli rejalar va dasturlarni ishlab chiqadilar. Rejani amalga oshirish uchun korxonaning hamma bo'limlari ishini o'zaro muvofiqlashtiradilar. Ularning ishini tashkil qiladilar, bevosita rahbarlik qilib, ishning bajarilishini nazoratga oladilar. Menejerlar xodimlarni korxonaga oldida turgan ma'lum maqsadga erishishiga chorlovchi va jamoani bunga otlantiruvchi, safarbar qiluvchi kishilardir.

Firmani boshqarishda menejerlarning yuqori salohiyatga egaligi, iqtisodiy bilimlarni chuqur bilishi, o'zining imidjiga ega bo'lishi, ma'naviy jihatdan yetukligi, muomala, so'zlashuv madaniyatining yuksakligi katta ahamiyat kasb etadi.

## FIRMANING BOSHQARUV TUZILMALARI

Firmaning katta-kichikligiga qarab, boshqaruvning turli xil tashkiliy tizimlari tuziladi. Faraz qilaylik, kichik do'konda uning egasi va yana bir kishi ishlaydi. Bu holatda, boshqaruvchi va boshqariluvchi orasidagi o'zaro munosabat bir qancha soddaroq bo'ladi. Bu tizim — soddaga tashkiliy tizim deyiladi. Bir nechta bo'limlardan tashkil topgan supermarketdagi boshqaruv tuzilmasini ko'z oldimizga keltiradigan bo'lsak, uning tuzilmasi (boshqaruv bo'g'inlari) birmuncha murakkabroq bo'ladi. Yangi tizimning avvalgisidan asosiy farqi faqat xizmatchilar sonining ko'pligidagina bo'lmay, balki bir nechta quyi darajali qismlardan tashkil topganligidadir. Endi ishchi va xodimlarning bir

qismi bevosita do'kon egasiga emas, balki kichik bo'limlarni boshqaruvchi menejerlarga bo'ysunadi.

Agarda firma savdo-sotiqdan tashqari ishlab chiqarish bilan ham shug'ullansa, uning tashkiliy tizimi yanada murakkabroq bo'ladi.

### **BOSHQARUV USLUBLARI**

Avtokratik, ya'ni yakka hokimlik uslubi. Bunda rahbar o'zgarar fikrini so'rab o'tirmaydi, balki buyruq berib uning bajarilishini nazorat qiladi. Bunday uslubda firmaning jamoasi markazlashgan bo'ladi, xodimlar orasida esa aloqalar deyarli bo'lmaydi.

Byurokratik (qog'ozbozlik) uslubi. Bu uslub ham yuqoridagi uslubning bir ko'rinishi bo'lib, firma faoliyati "tepadan tushirilgan" buyruqlar, yo'l-yo'riqlar va rasmiy qog'ozlar asosida boshqariladi. Bunday korxonada tashabbuskorlikka emas, qog'oz hujjatlarga ko'proq e'tibor beriladi.

Demokratik uslub. Bunda jamoaning barcha a'zolari qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etadi. Jamoa har bir a'zosining fikri inobatga olinib, ular umumiy ishga qandaydir hissa qo'shayotganligidan qoniqadi. Bunday jamoalarda, odatda, odamlar o'z ishlariga sadoqatli bo'ladi. Rahbarning asosiy vazifasi jamoa a'zolarini tashabbuskorlikka yo'naltirishdan iborat bo'lib qoladi.

Menejment keng ma'noli tushuncha sifatida jahondagi menejment va uni tashkil etishning nazariyotchilaridan biri Piter F. Druker aytganidek, "Menejment alohida faoliyat turi bo'lib, tashkil etilmagan betartib ommani bir maqsadga yo'naltirilgan samarali va unumli guruhga, jamiyatga aylantiradigan, ijtimoiy o'zgarishlarni rag'batlantiruvchi element hisoblanadi".[1]

Menejment usullari kishilarni, jamiyatni obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qonunlari talablarini bajarishga undaydi. Ular aniq bir usul, uslub, maqsadga erishish yo'lini ifodalaydi. Demak, menejment uslublari – ishchi va xodimlarga umuman menejment obyektiga qo'yilgan maqsadga erishish jarayonida ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni maxsus izlanish usullari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Tizim usuli boshqaruv muammolarini yechishda ishlatiladi va tizimning butunligiga asoslanadi. Taraqqiy etgan davlatlarda tizimli-majmual, tizimli - tarkib, tizimli -funktional, tizimli -kommunikatsion va boshqa ko'rinishlari mavjud.

2. Izlanishning majmual usuli -voqealarni va ularning bir-biri bilan bo'lgan aloqalarini faqat ushbu fan usuli bilan emas, balki boshqa bir xil hodisalarni o'rganuvchi fanlar bilan o'rganadi.

3. Izlanishning tarkibiy usuli –murakkab hodisalarni bo'laklarga ajratishdan iborat.

4. Vaziyatli yondashish - menejment faoliyatini ng maqbul usullarini ichki va tashqi sharoitga qarab belgilash.

5. Integratsion yondashish-izlanish usuli boshqa usullar ko'rsatkichlarini hisobga olish asosida menejment hisoblanadi.

6. Modellashtirish-boshqariluvchi obyektни boshqaruvchi turli sxema, grafik va chizmalar, xomaki materiallar tayyorlash yordamida boshqarish usuli.

7. Matematik yondashuv – optimal qaror qabul qilish maqsadida matematik uslublar va kompyuterlar keng miqyosda qo'llaniladi.

8. Kuzatish usuli –menejment obyektни to'g'risidagi ma'lumotni rejali, ilmiy, uyushtirilgan asosda to'plash usuli .

9. Eksperiment – menejment asosida boshqariluvchi obyektga nisbatan namunaviy tajribadan o'tgan usullarni qo'llash. Undan tashqari , menejmentning eng asosiy bilish uslubi dialektik uslub u menejmentga o'rganilayotgan ijtimoiy hodisalarning mohiyatini ochishga yordam beradi .

Menejment ilmining markaziy joyi - “tashkilot rahbarlarini tashkilotni bir butun holdagi jarayon sifatida uning manfaatlari uchun tashkilot tarkibiy qismlarining o'zaro munosabatlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishda ilmiy asos bilan ta'minlashdan” iborat. Bu barcha tashkilotlar uchun muhimdir, lekin bu tamoyilni yirik tashkilotlarda qo'llash ixtisoslashtirishning yuqori darajasi tufayli qiyin bo'lishi mumkin. Cherchmen, Akoff va Arnofflarning tasdiqlashicha:

“Tashkilotda har bir funksional birlik (bo'linma , bo'lim yoki sektor) umumiy ishning bir qismini bajarishga majbur. Biroq, mehnatning bunday taqsimlanishining natijasi har bir funksional bo'linma o'ziga tegishli bo'lgan maqsadlarini ishlab chiqishidan iborat”[2]. Masalan, ishlab chiqarish bo'limi , odatda, ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirish va ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish bilan shug'ullanadi .

Menejer qila oladigan eng muhim narsa bu ishga mos keladigan yangi xodimlarni yollashdir (Li Iacocca).[3]

Menejmentning holati ishlab chiqarish samaradorligiga, texnika va texnologiya darajasi hamda ishchi kuchining sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Menejment fanining mazmuni boshqaruv tizimi va boshqaruv obyektни orasidagi o'zaro munosabat bo'lib, uning asosiy vazifasi boshqaruvning zamonaviy usullarini, rahbarlik san'ati sirlarini o'rganishdan iborat. Boshqaruv — tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat etish jarayonidir. Uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha bo'g'inlarda ishlay oladigan yuqori malakali boshqaruvchilarni tayyorlashdan iborat. Menejment ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy, kibernetika va boshqa fanlar bilan aloqadordir. Menejment dastavval iqtisodiy nazariya fani bilan yaqindan bog'liq. U iqtisodiy qonunlarni bilib olishga va ularga mos ravishda boshqarish jarayonida iqtisodiy usullarni qo'llashga, har bir xodimga va jamoaga ta'sir ko'rsatishga asoslanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOLAR :**

1. D. Qosimova. Menejment nazariyasi (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv -metodik birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan. 2007-yil 28-avgust 177-sonli buyrug'i asosida berilgan. 1189-sonli guvohnoma asosida tavsiya etilgan)- T.: Иқтисодиёт, 2012.-B.6

2. N.Q.Yo'ldoshev. Menejmentga kirish ( O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya berilgan )-T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021.-B.18

3.<https://m-eng.ru/uz/cesspool/citaty-o-menedzhmente-aforizmy-menedzhmenta-citaty-o-menedzhmente.html>